



Improving the professional communicative competence of students in English language lessons

Dildora JABBOROVA ¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 July 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

25 August 2024

Keywords:

professional language,
communicative competence,
role-playing,
simulation,
group activity,
thinking,
multimedia learning,
educational platforms,
intercultural competence,
creative thinking,
problem-solving

ABSTRACT

This article highlights technology-intensive methods, multimedia tools, simulations, role-playing and group work activities for improving students' professional communicative competence in English classes. These methods allow students to develop their ability to communicate effectively, solve problems and think creatively in a professional environment.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp239-243>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz tili darslarida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetentsiyasini takomillashtirish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kasbiy til,
kommunikativ
kompetentsiya,
rol o'ynash,
simulyatsiya,
gruh faoliyati,
fikrlash,
multimediali ta'lim,

Ushbu maqola ingliz tili darslarida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetentsiyasini takomillashtirish texnologiyalari intensiv metodlar, multimedia vositalari, simulyatsiyalar, rol o'ynash va gruh bo'lib ishlash faoliyatlarini yoritib berilgan. Yuqoridagi usullar talabalarga professional muhitda samarali aloqa qilish, muammolarni hal qilish va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

¹ Independent researcher, Namangan State University. E-mail: dildorajabborova@gmail.com

ta'lim platformalari,
madaniyatlararo
kompetentsiya,
kreativ fikrlash, muammoni
hal qilish.

Совершенствование профессионально коммуникативной компетентности студентов на занятиях английского языка

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

профессиональный язык,
коммуникативная
компетентность,
ролевые игры,
симуляция,
групповая деятельность,
мышление,
мультимедийное
обучение,
образовательные
платформы,
межкультурная
компетентность,
творческое мышление,
решение проблем.

В этой статье освещаются технологически интенсивные методы, мультимедийные инструменты, симуляции, ролевые игры и групповые рабочие задания для улучшения профессиональной коммуникативной компетенции студентов на занятиях по английскому языку. Эти методы позволяют студентам развивать свою способность эффективно общаться, решать проблемы и творчески мыслить в профессиональной среде.

KIRISH

Hozirgi kunda pedagogik mahoratning sir-asrorlarini egallash asoslari oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish jarayonida ijobiy samara berishi, undagi imkoniyatlarning mavjudligi, shu faoliyat jarayonida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi yuksak samara berishini isbotlamoqda. Shunday ekan, bo'lajak mutahasislarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini zamon talablari asosida shakllantirish, shunday mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalariga katta ma'suliyat yuklaydi. Har bir olim ta'lim bitiruvchisining kasbiy va pedagogik mahoratini oshirishga, ularda zarur bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilishi dolzarb muammo kasb etadi. Shu o'rinda biz maqolada ingliz tili darslarida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetentsiyasini takomillashtirish texnologiyasini tahlil etdik.

Adabiyotlar tahlili

Ingliz tili darslarida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetentsiyasini takomillashtirishning turli usullari va texnologiyalari mavjud. Bular talabalarning professional faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun kerakli til va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kasbga yo'naltirish asosida o'qitish

Kasbga yo'naltirish kontekstda o'qitish – bu ta'lim sistemasida hozirgi kunda tadbirkorlik, mutaxassislik va professional faoliyatning real shartlariga muvofiq ravishda olib boriladigan ta'lim jarayonidir [1]. Bu usulda ta'lim oluvchilarga faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko'nikma va kompetentsiyalar berishga ham alohida e'tibor berilgan. Bu texnologiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Darslarni talabalarining kasblari bilan bog'lash: materiallar va mashqlar talabalarining kelajakdagi faoliyatiga mos bo'lishi zarur;

- Ma'ruzalar, to'g'ridan-to'g'ri fan dasturlari vositasida kasbiy atamalar va tushunchalarni o'rgatishi kerak;

- Ingliz tilida nutq namunalari: talabalarga ingliz tili darslarida autentik materiallar yordamida kasbiy sohalarida keng tarqalgan til funksiyalari va nutq shakllarini kuzatish va tahlil qilish, so'rovlar qilish, ko'rsatmalar berish, ma'lumotlarni taqdim etish yoki professional munozaralarda qatnashish kabi muayyan funksiyalarni bajarish uchun til qanday ishlatilishini aniqlashlari uchun imkon yaratish lozim;

- Kasbiy muloqot strategiyalari: professional kontekstlarda keng tarqalgan aloqa strategiyalari, o'z sohasi doirasida mutaxassislarning o'z muloqotlarini qanday tuzayotganini, ishontiruvchi tildan foydalanishini, muzokaralar olib borishini va rasmiy yoki norasmiy nutqda qatnashishini kuzatishi lozim;

- Pragmatik tildan foydalanish: professional kontekstlarda tildan foydalanishning pragmatik jihatlarini, masalan, xushmuomalalik strategiyalari, bilvosita muloqot va madaniy tildan foydalanishni ochib beradi [2].

Kasbga yo'naltirish asosida o'qitish yondashuvi nafaqat talabalarining ingliz tilida nutq qobiliyatlarini oshiradi, balki ularni kasbiy kontekstlarning muloqot talablarini samarali boshqarishga tayyorlaydi.

Leksiya va auditoriya faoliyati

Leksiya va auditoriya faoliyati ta'lim jarayonida muhim elementlardan biri bo'lib, ular bilimlar uzatish va o'rganish uchun samarali vositalar hisoblanadi. O'rganish jarayonida sharoitlarni, metodlarni va formalarni hisobga olish zarur. Uning quyidagi elementlari mavjud:

- Talabalarni muammolarini hal qilish, loyiha tayyorlash va prezentatsiyalarni amalga oshirish uchun muloqot qilishga o'rgatish.

- Rol o'ynash (role-play) va simulyatsiyalarni faollashtirish, bu talabalarga aniq professional vaziyatlarda faol ishtirok etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, leksiya va auditoriya faoliyati ta'lim jarayonining ikki muhim va bog'liq qismi bo'lib, ular talabalarining bilimlarini mustahkamlash va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Gruhlarda ishlash (team working)

Gruh faoliyatlari – bu guruh ichida ishtirokchilarning birgalikda faoliyat olib borishini nazarda tutadi. Ushbu faoliyatlar, odatda, ma'lum maqsadni amalga oshirish, muammolarni hal qilish, yangiliklar yaratish yoki bilimlarni almashish uchun tashkil qilishadi. Gruh faoliyatlari ta'lim, biznes, ijtimoiy, va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi [1]. Gruh faoliyatlari ta'limda quyidagilarda asoslanadi:

- Gruhda ishlashni tashkil qilish, bu talabalarining jamoaviy ishlash va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- Talabalarga aqliy xujum(brainstorming) faoliyatlarini o'tkazish, bu esa kreativ fikrlashni rag'batlantiradi.

Ta'limda gruh faoliyatlari talabalarining samaradorligini oshirish, hamkorlik olib borish, jamoa ichida faoliyatini kuchaytirish va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yaxshi vosita hisoblanadi. Bu, xususan, shu munosabat bilan davom ettirilgan pedagogik printsiplar bilan samarali natijalarni olinishiga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, guruh

faoliyatlari samarali va manzilli faoliyatlar bo'lib, professional va ijtimoiy bilimlarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Multimedia texnologiyalari

Multimedia texnologiyalari – bu tekst, grafika, animatsiya, video, audio va interaktiv elementlarni o'z ichiga oluvchi, ma'lumotlarni va kontentni uzatish va namoyish qilish uchun foydalaniladigan zamonaviy texnologik vositalar va usullar jamlamini anglatadi [3]. Bu texnologiyalar ta'lim, reklama, ko'ngilochar, tadqiqot va boshqa ko'plab sohalarda faol qo'llaniladi.

-Onlayn platforma va resurslardan foydalanish, videolar, audio yozuvlar va interaktiv manbalar orqali talabalarni tilni real dunyoda qanday ishlatilayotganini ko'rsatish. Talabalarga videolarni to'g'ri tushunish, ular asosida muhokama qilish va o'rganganlarini amaliy faoliyatlarga qo'llash.

Multimedia texnologiyalari zamonaviy dunyoning muhim bir qismi bo'lib, ular ma'lumot almashish va ta'lim berish jarayonlarini samarali formatda ta'minlash uchun vositadir. Ular foydalanuvchilarning qiziqishini, diqqatini va tushunchalarni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar, xususan, ta'lim, marketing, ijtimoiy medialar va ko'ngilochar sohalarda davlatning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega [4].

Aloqa va moslashuvchanlik

Aloqa va moslashuvchanlik texnologiyasi — bu, asosan, ma'lumotlarni uzatish, qabul qilish va ulashish jarayonlarini ta'minlovchi texnologiyalar to'plamidir. Bu texnologiyalar fizik, ijtimoiy va iqtisodiy muhitda bir-biri bilan aloqada bo'lgan insonlar va qurilmalar o'rtasida muomala qilish uchun moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Aloqa va moslashuvchanlik texnologiyalari ta'limda muhim rol o'ynaydi. Ularning samarali foydalanilishi talabalar va o'qituvchilar o'rtasida malakali aloqani o'rnatish, ta'lim jarayonini takomillashtirish va o'zgartirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi [4]. Quyidagi nuqtalarda ta'limdagi aloqa va moslashuvchanlik texnologiyalarining asosiy samaradorliklari keltirilgan:

-Talabalarga global kontekstda aloqa qilish va muloqot etish ko'nikmalarini rivojlantirish, madaniyatlararo kompetentsiyalarni oshirish.

-Turli madaniyatlar bilan bog'liq senariylar va vaziyatlarni ko'rib chiqish, ularga o'z madaniyatlari bilan taqqoslashni o'rgatish.

Aloqa va moslashuvchanlik texnologiyalarining ta'limda samarali joriy qilinishi na faqat ta'lim sifatini oshirishi, balki bilim olish jarayonini ham qizg'in va qiziqarli qilishga yordam beradi. Ushbu jarayonlarda texnologik yangiliklarni ishlatish, talabalarining bilimlarini yaxshilash va ularni mustaqil ravishda bilim olishga rag'batlantirishda ahamiyatlidir.

Xulosa

Talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish uchun metodikalar, interaktiv faoliyatlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash juda muhim. Bu usullar talabalarni faol bo'lishlarini ta'minlashga, ularning muhitda kerakli til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va kasbiy hayotga olib boradi. Ingliz tili darslarida talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish texnologiyalari intensiv metodlar, multimedia vositalar, simulyatsiyalar, rol o'ynash va gruh faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu usullar talabalarga professional muhitda samarali aloqa qilish, muammolarni hal qilish va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini

beradi. Talabalar o'z kasblari bilan bog'liq til va kommunikatsiya ko'nikmasiga ega bo'lishlari kerak, bu esa ularni kelajakdagi professional faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishga tadbiq qiladi. Talabalarining madaniyatlararo kompetentsiyasini oshirish va kasbiy tilni yaxshi o'zlashtirish uchun zamonaviy ta'lim platformalari va resurslardan foydalanish xavfsiz. Shunday qilib, professional ko'nikmalarni takomillashtirish maqsadida zamonaviy metodlarni tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimjanova L. X. Nofilologik ta'lim yo 'nalishi talabalariga ingliz tilini o 'qitishda content asosida o 'qitish texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodologik asoslari //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – С. 957-963.
2. Embergenova A. Kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'rganuvchi talabalarining so'z boyligini oshirishda autentik materiallardan foydalanishning ahamiyati //Евразийский журнал академических исследований. – 2024. – Т. 4. – №. 1 Part 2. – С. 72-75.
3. Fortanet-Gómez I., Räisänen C. A. (ed.). ESP in European higher education: Integrating language and content. – John Benjamins Publishing, 2008. – Т. 4.
4. Stognieva O. N. Teaching the university ESP course with the MOOC component: Putting ideas into practice //Journal of Asia TEFL. – 2019. – Т. 16. – №. 1. – С. 437.